

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 29 (66310)
2001 yil 20 iyul, juma

Sotuvda erkin narxda

ULARGA HAVASIMIZ KELDI

«Diqqat! Diqqat!

«Xalq so'zi» va «Narodnoye slovo» gazetalarini tahririyati O'zbekiston Respublikasi karate milliy federatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda 2001 yilning 15 iyul kuni mustaqilligimizning 10 yilligiga bag'ishlab 1991 yilda tug'ilgan o'g'il bolalar va qizlar o'rtasida mazkur gazetalar sovrini uchun karate bo'yicha musobaqa o'tkazadi. Istiqlolimiz tengdoshlarining chinakam sport bellashuvidan bahramand bo'laman desangiz, poytaxtimizdagi MHSK sport majmuiga tashrif buyuring. Ushbu musobaqa g'oliblarini qimmatbaho sovg'alar kutmoqda».

Bunday chorlov bir necha kundan beri Toshkent televideniya qayta-qayta berildi, gazeta sahifalarida yoritildi.

Bu qanday musobaqa bo'ldi ekan? Qiziqishim ortib, 15 iyul kuni poytaxtimizdagi MHSK sport majmuiga bordim.

Maydon o'rtasida g'oliblar uchun atalgan sovg'alar: velosipedlar, kiyim-kechaklar, darsliklar, gullar... Nihoyat, kutilgan daqiqalar yetib keldi. Sho'x musiqa sadolari ostida bolajonlar maydonga tashrif buyurishdi. Davlatimiz madhiyasi yangradi. Mamlakatimiz bayrog'ini yosh sportchilar ko'kka ko'tarishdi. Bayramning ochilish marosimida «Xalq so'zi» va «Narodnoye slovo» gazetalarining Bosh muharriri Abbasxon Usmonov yosh karatechilarga g'alaba tiladi va o'zbekning farzandlari hech qachon mag'lub bo'lmasligini ta'kidladi.

Abbasxon Usmonov aynan shu kuni 10 yoshni qarshilagan Bahrom To'laganovni tavallud kuni bilan qutlab, samimiy tilaklar bildirarkan, bolajon ko'zlarida quvonch porladi. Tahririyatning o'zi uchun atalgan sovg'asini olganda-chi... Uning shodliklarini so'z bilan

ifodalash qiyin. Bahrom qo'lidagi sovg'ani balandga ko'targancha barchaga mag'rur boqdi. Uni yosh sportchilar, ota-onalar, musobaqaga yig'ilganlar qutlashdi.

Bolajonlarni musobaqa bilan tabriklagani kelgan Marat Hakimov - O'zbekiston haqida, xonanda Davron Ahmedov

«Asrang, asrang bolajonni,

Unga ko'zlar tegmasin.

Alpomishdek kuchga to'lsin,

Hech kim qaddin egmasin», - deya kuylaganda, unga hayajon bilan yig'ilganlar jo'r bo'lishdi. Egnilaridagi oppoq yaktaklari ko'zni olib, yosh karatechilar maydon bo'ylab



gir aylanib raqsga tushishdi. Karateda qiziq bo'larkan: har bir sportchi raqibiga qo'l bilan zarba berarkan. Bu mushtning kuchini bolajon ichidan otilib chiqayotgan hayqiriq ovoz bilan isbotlarkan.

Ularga qarab turib ko'zlardagi quvonch va g'urur bilan qorishiq suratni ko'rdim. Ammo hadiksirab bolasiga tushgan zarbadan cho'chiyotgan ota-onalarni ham tushunish qiyin emasdi. Hatto otalarning «Bo'sh kelma», «Ur», «Malades, o'g'il bola», «A, ota o'g'il, yasha» deb baqirishlari ham o'ziga xos, o'zbekka mos bir holat edi.

Shunday qilib, g'olib karatechilar aniqlandi. Sovg'alar o'z egasini topdi. Aslida esa musobaqada mag'lublilar bo'lmadi. Sababi, endigina 10 yoshni qarshilagan bolajonning mushtlari raqibini yer tishlatsa, u jahon maydonlarida kurashsa, mana shu sportchi uchun O'zbekiston bayrog'i yuksaklarga ko'tarilsa, aynan shu yosh karatechilar ertangi kunning, mustaqil yurtning umidi bo'lsa, shuning o'zi g'oliblik emasmi?!

Adibaxon RAHMATULLAYEVA,
O'ZMU jurnalistika
fakultetining talabasi.
No'monjon MUHAMMADJONOV
olgan surat.



G'uzallar kun dunёda,
Bir-biridan ziёda.
Amo'zbek g'uzalini,
Kiёsi i'yo'q dunёda.

Suratdagi tengdoshingiz
Mалика МАХМУДОВА ҳақидаги мақолани
3-бетда ўқийсиз.

Biz ukam Mansur bilan yozgi ta'tilda Qibray oromgohida dam oldik. Oromgoh juda chiroyli ekan. U yerda dam olgan bolaning bahri dili ochiladi.


Men ham ko'plab do'stlar orttirdim. Shuhrat Abdullayev, Dilmurod Haydarov, Durdona Oloviddinova, Ramziddin

OTA-ONAMNI SOG'INDIM

Zayniddinov, Komil To'laganov kabi bolalar bilan do'stlashib qoldim. O'rtoqlarim bilan shahka to'garagiga qatnadim, tadbirlarda ishtirok etdim. Xullas, har bir kunim maroqli o'tdi. Biroq ota-onamni juda-juda sog'indim.

Yozgi ta'til soz o'tsin
Bolalar o'ynab kulsin.
Baxtimizga onalar
Hamisha kulib yursin.
Chunki ular bizlarning,
Hayotimiz posboni.
Bo'lsin xurram zamonda
Bolalarning sog' joni!

Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi G'afur G'ulom
nomli 169- maktabning 5-„G“ sinf o'quvchisi.



TATLAYSAN TATIL BO'LDI-DA

ODOB OLTINDAN QIMMAT

Yozgi ta'tilda miriqib dam olayapmiz. Ba'zilar oromgohlarda o'tkazadilar. U yerda shart-sharoitlar juda yaxshi. Har kuni ertalab badantarbiya qilinadi. So'ngra nonushta qilib, sport bilan shug'ullanadilar. Suv havzalarida cho'miladilar, keyin dam olib uxlaydilar. Har xil to'garaklar ishlab turadi. Musobaqalar uyushtiriladi. Yozgi oromgohning har bir kuni esda qolarli qiziq o'tadi. Bu yili men oromgohga bora olmagan bo'lsamda, vaqtimni behuda o'tkazmayapman. Har dushanba kuni «Tong yulduzi» tahririyati qoshidagi Feruza Jalilova olib boradigan to'garakka qatnashaman. «Yosh qalamkashlar» to'garagi biz kabi qiziquvchilar uchun ulkan maktabni o'tayapti. U yerda o'z ijodimizdan o'qib, yo'l-yo'riq olish bilan birga, taniqli adiblar, yozuvchilar va shoirlarning hayot tajribalaridan tinglayapmiz. Ular bilan hamsuhbat bo'lyapmiz, o'g'itlarini olayapmiz. Bir kungi mashg'ulot darsi menga bir haftalik ilhom beradi. Ishonsangiz, faqatgina adabiyot haqida o'ylayman. Yangi kitoblarni o'qish bilan birga yangi she'rlarni ichimda mushohada qilaman. O'zimga yoqqanlarini qog'ozga tushiryapman

Dilshod USMONOV,
poytaxtimizdagi 203-maktabning
4-sinf o'quvchisi

ONALARNING ORZUSI

namunali xulqqa ega bo'lishimiz, zukko va dono bo'lishimiz lozim. Dunyodagi barcha onalarning niyatlari ham shu. Qani endi har bir bola onaning faxri bo'lib qolsa. Onalarimiz xursand bo'lsalar, uyimiz tinch va osuda, saranjom va sarishta bo'ladi. Bobomiz Alisher Navoiy ham onaning buyuk zot ekanligi haqida shunday degan:

Onalar oyog'i ostidadur
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'i visolin istar esang
Bo'l onaning oyog'in tufrog'i.

Onani e'zozlash bizning millatimiz, xalqimiz uchun xos fazilat. Sog'lom avlodni, sog'lom farzandni tarbiyalashda onaning jamiyatdagi roli juda kattadir. Bekorga donishmandlar „Ona-hayotning guli, bola - uning bulbuli“ deyishmagan.

Biz farzandlar ota-onamiz, ustozlarimizning ishonchini oqlashimiz kerak. Mustaqil O'zbekistonimizning gullab yashnashi uchun bor iqtidorimizni namoyon qilishimiz lozim. Kelajakda onalarimiz orzu qilgandek insonlar bo'lib yetishaylik. Bu ezgu niyatlarimizni Ollohning o'zi qo'llasin.

Zuhra ISMATULLAYEVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi 275-
maktabning 5- „A“ sinf o'quvchisi.

BU BIZNING LITSEY

1991 yilda tashkil topgan litseyimizga Akmal Ikromov nomli Toshkent avtomobil yo'llari instituti qoshidagi akadem-litsey maqomi berilgan. Litseyimiz o'quvchilari barcha fanlar bilan birgalikda to'rt yo'nalish: texnika, ekologiya, iqtisod va bank sohasi bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim olishadi. Darslarning tajribali professorlar, yuqori malakali o'qituvchilar tomonidan yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan holda o'tilishi e'tiborga loyiqdir. Litseyimizda ko'pgina darslar noan'anaviy, ya'ni ochiq-seminar tarzda o'tilishi, biz o'quvchilarni darslarga yanada mas'uliyat bilan yondoshishimizga chaqiradi. O'quv xonalarimiz yangi texnik qurilmalar bilan jihozlangan. Kompyuter, lingafon xonalarida dars ayniqsa qiziqarli o'tadi. Kutubxonamizda kitoblar juda ko'p. Litseyimiz YUNESKO maktablari qatoriga kiritilgan bo'lib, har yili sinovlar asosida tanlab olingan o'quvchilar AQSHda o'qishni davom ettirish imkoniga ega bo'ladi. Bizda tez-tez „Quvnoqlar va zukkolar“ tanlovi o'tkazilib turiladi. O'quvchilarni tashkiliy ishlarga jalb qilish uchun turli tashkilotlar faoliyat ko'rsatib turibdi. Shuningdek, o'quvchilar orasida tartib-intizomni nazorat qilish va tegishli chora-tadbirlarni belgilovchi „Yoshlarning o'z-o'zini boshqarish sudi“ tashkil etilgan.

Xatira ABDIBOYEVA,
II-bosqich, 2-guruh
talabasi.

FAQAT A'LO O'QISH UCHUN

121- maktabda ta'mirlash ishlari vaqtli boshlangan edi. Shuning uchun erta tugatildi. 35 ta sinf xonalari, fan kabinetlari, maktab oshxonasi va qo'shimcha xonalari yo'laklar yap-yangi bo'lib yaraqlab turibdi.

Maktab rahbariyati ta'mirlash ishlarini yuqori baholab, ta'mirchilar brigadasiga o'z minnatdorchiliklarini bildirdi. Ta'mirchilardan Bahromov Xasan aka, Toshbekov Umar aka, Xursanov Jamol aka, Qodirov Farhod akalarga eshik, deraza va oynalarni hamda pollarni tozalab, tartibga keltirishgan maktabimizning xo'jalik ishlari bo'yicha xizmatchilariga chin dildan rahmat aytamiz. Maktabimiz 2001-2002 o'quv yiliga tayyor.

Biz o'quvchilar bilim berishga tayyor turgan maktabimizga faqat a'lo o'qish uchun talpinamiz.

Dilnoza HAMDAMOVA,
Samarqand viloyati,
Urgut shahridagi 121-maktabning
6-„V“ sinf o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



QISHLOG'IM HAM OROMGOHDEK

Hash-pash deguncha ta'til kunlarimizning ikki oyi ham o'tib boryapti. Men ta'tilni o'z uyimizda, qadrdon qishlog'imizda o'tkazyapman. Chunki qishlog'imiz har qanday xushmanzara oromgohdan qolishmaydi, havosi musaffo, suvlari tiniq, soya-salqin joylari ko'p. Har kuni barvaqt uyg'onib, tong otishini kuzataman. So'ngra, mol-holga qarayotgan onamga ko'maklashaman. Opam nonushta tayyorlaydi, men esa hovlilarni supurib, supaga ko'rpachalar to'shayman. Bo'sh vaqtlarimda badiiy qitoblar o'qiyman. Yana sevimli gazetamiz „Tong yulduzi“ga maqolalar yozaman. Opam esa ularga moslab rasmlar chizadilar. O'zimiz yangi-yangi o'yinlar o'ylab topamiz. Xullas, har bir kunimiz zavqli, maroqli o'tyapti. Tengdoshlarim kabi oromgohlarga boray deymanu onajonim va opamni ko'zim qiymaydi. Chunki ularni juda yaxshi ko'raman, ularsiz bir kun ham turolmayman-da.

Dilafro'z OYDINOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh
shahri.



SARVARGA SOLINGAN JARIMA

Ta'til yaxshi o'tayapti-yu lekin bir sinfdoshimning sho'xligi ko'ngilxiralik keltirdi. Sinfdoshim Sarvar bizga qo'shni hovlida turadi. O'zi juda sho'x bola. Partada yonma-yon o'tiramiz.

Bir kuni ularning hovlisida „Sarvar, uyda kartoshka qolmabdi, bozorga borib kel“ degan onasining ovozi eshitildi. Sarvar istaristamas „xo'p“dedi. Chunki uni o'rtoqlari kutishayotgan edi. Ular bilan birgalashib soyga cho'milish uchun borishmoqchi ekan. Shuning uchun ham noiloj velosipedini olib, yo'lga tushdi. Shunda Nazokat opaning yana ovozi eshitildi. „Katta yo'lga chiqqaningda svetoforga qaragin, qizil chiroq, yonganda o'tgin“dedi. Ammo Sarvar: „Buncha ko'p gapirdingiz“deb javob berdi.

Sarvar velosipedda ketayapti-yu, xayoli o'rtoqlari bilan soyga tezroq borishda edi. Shuning uchun ham katta tezlikda borar edi. U svetoforning chiroqlariga umuman qaramasdi. Shu vaqt qarshisidan bir mashina chiqib qoldi. Haydovchi Sarvarni urib yubormaslik uchun rulni o'ngga burib yubordi. O'ngda esa mashina kelayotgan edi. Kutilmaganda ikki mashina to'qnashib ketdi.

Sarvar tufayli halokat sodir bo'lganligi uchun uning oilasiga katta jarima solindi. Jarimani to'lash uchun ular uy jihozlarini sotishdi. Sinfdoshim Sarvar bundan qattiq xafa bo'lib qoldi. Bundan keyin ko'cha harakati qoidalariga amal qilishga o'ziga-o'zi so'z berdi.

Oynisa ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh
shahridagi 59- maktabning 8- „A“sinf
o'quvchisi.

AHILLIKDA GAP KO'P

Ko'chadan uyga kirib kelsam, oyijonim qayoqqadir otlanayaptilar.

-Oyijon, bugun dam olish kuningiz-ku yoki bugunam ishga borasizmi?-deb so'radim.

-Yo'q, qizim. Dilbar xolangning tobi qochib qolibdi, shuning uchun do'xtirga chiqib kelamiz,-dedilar.

-Voy, oyijon! Xolam kichkinamaslar-ku, o'zlari bora olmaydilar? Nimadan qo'rqadilar?,-dedim.

-E, qizalog'im, xolang do'xtirga ketsa, men xavotir olib o'tiraman, shuning uchun o'zim bora qolay, tezda kelaman. Sen opalaringga qarashib, ahil, inoq bo'lib o'tiringlar.

Ha, haqiqatdan ham oyijonim oilalarida 4 nafar qiz va 2 o'g'illar. Hammalarining o'z oilalari bo'lsa-da, juda inoqlar. Biz tez-tez Hurriyat buvijonim va Ismoil buvajonimning uylariga borib turamiz. Har gal borganimizda uchchala xolam va tog'alarim bolalari bilan kelishadi. Buvajonimning uylari xuddi bayramdagidek bo'lib ketadi. Hammamiz to'planib o'tirganimizda, buvijonim bizlarni duo qiladilar va bizlarga doimo ahil, inoq bo'lib yuringlar, shundagina hayotning pastu-baland so'qmoqlarida qiynalmaysizlar. Bir-birlaringdan hech qachon yordaminglarni ayamanglar, deydi.

Adajonim bilan oyijonim bizlarni ham yoshligimizdan ahil va inoq bo'lishimizga alohida e'tibor berib keladilar. Men hech

qachon opalarimga baland ovozda gapirmayman. Doimo uy ishlariga qarashaman. Ozoda opam menga uy vazifalarimni tayyorlashga, Gulnoza opam esa ko'proq rasm chizishga va har xil narsalarni yasashga ko'maklashishadi. Meni o'zlari bilan sayrlarga olib chiqishadi. Biz opasingillar doimo ahil bo'lib qolamiz.

Ziyoda
MIRXALILOVA,
Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 223-
maktabning 3-sinf
o'quvchisi.




ASR VABOSI

Tengdoshim, sen mehr to'la onangning bag'rida o'sayapsan. Otangning ma'noli so'zlaridan olam-olam ma'no olayapsan. Biroq shunday sharoitda ham yomon ko'chalarga kirib qolayotgan bolalar ham yo'q emas. Qo'lga havas uchun shiqildoq qog'ozli tamaki olib, atrofida gilarni chekishga majbur qilayotganlar kammi? Kechagina ota-onangga baxt, quvonch olib kelayotgan eding. Bugun esa ularga tashvish, qayg'u, dard-alam olib kelayapsan. Axir onang tunlarini bedor o'tkazib, senga alla aytgan, tobing qochganida sen bilan barobar dard chekkanini unutingmi?

Aziz tengdoshim, kel, davramizga qo'shil. Yomon ko'chalarga qadam qo'yama. Yomonlarga yaqinlashma. Buning uchun senda iroda bor, kuch bor, aql bor. Yaxshilarga ergash, ulardan o'mak ol.

Shohista SAYDAXMEDOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent
tumanidagi Muqimiy nomli
10- maktabning 6- „B“ sinf
o'quvchisi.





ONAJONIM OFTOBIM

Mehringiz quyoshga o'xshatgim desam,
Ko'kdagi quyosh ham so'nadi har kech.
Chehrangizda ko'rdim uning aslini,
Sizdagi bu shu'la so'nmagaydir hech.

Ziyoli muallim, onajonginam,
Sizning shogirdingiz, ham qizingizman.
Umid osmonida porlab turuvchi,
Aslo so'nish bilmas yulduzingizman.

Munis she'riyatga uyg'otdi havas,
Qalbim torlarini chertgan so'zingiz.
Ey yuzi mohtobim, qalbi oftobim,
Onajon vatanni kuylar qizingiz.

*Saodat ISMATOVA,
Qibray tumanidagi 19-
maktabning 9-sinf o'quvchisi.*

QO'G'IRCHOG'IM

Qo'g'irchoq'im qo'g'irchoq,
Ko'zlari munchoq-munchoq.
Seni o'yladim har dam
Kunlar o'tdi tez bardam.

Shirin suhbatlar qurib
Faqat seni o'ynardim,
Oyim urushsalar ham
Seni qo'ldan qo'ymasdim.

Men katta bo'lib qoldim,
Seni singlim o'ynaydi,
U ham xuddi men kabi,
Sira qo'ldan qo'yamaydi.

Xafa bo'lma qo'g'irchoq,
Sen barchaga o'yinchoq.
Men ham o'ynab turaman,
Ko'nglim chog'lab turaman.

*Ra'no YO'LDOSHEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumani,
11-"A" sinf o'quvchisi.*

ONA ALLASI

Onam mening oftobim,
Yuragimga taft bergan.
Ikki dunyo savobin,
Qaynoq bag'ir - baxt bergan.

Allasidan ko'nglim shod,
Uni tinglab o'sdim men.
Yomonliklar menga yot,
Ular yo'lin to'sdim men.

Tilagim bor, validam,
Uzoq umr ko'rsinlar.
Jajji jiyanlarimga,
Alla aytib yursinlar.

*Jasurbek UMRZOQOV,
Samarqand viloyati, Narpay
tumanidagi 30-litseyning 7-sinf
o'quvchisi.*

QALDIRG'OCH

Har bahor uyimizga,
Uchib kelar qaldirg'och.
Bag'ridan joy beradi,
Shipdagi katta og'och.

Qaldirg'ochjon, qaldirg'och,
Seni yaxshi ko'rman.
Eson-omon keldingmi,
Deya ahvol so'rayman.

Olisdan uchib kelding,
Uyimga mehmon bo'lib.
Chug'ur-chug'urlaringga,
Uyimiz qoldi to'lib.

Qaldirg'ochim endi hech,
Uzoqqa ketma uchib.
Qo'rqmay yonimga tushgin,
Seni erkalay quchib.


*Xidirova Radxa
ESHNAZAR qizi,
Qashqadaryo viloyati,
G'uzor tumanidagi Lutfiy nomli
maktabning 11-"A" sinf o'quvchisi.*

SICHQONNING DEGANI

Men sichqonman-sichqonman,
Juda-juda chaqqonman.
Qo'rqmayman qopqondan ham
Paydo bo'laman har dam.

Mushuk mening tog'amdir,
Kalamushchi og'amdir.
Yashaymiz barcha inoq,
Sen ham bizga bo'l o'rtoq.

*To'ychiyev SARVARBEK,
Sobir Rahimov tumanidagi 224-
maktabning 5-"B" sinf
o'quvchisi.*



NON

Dasturxonning ko'rki non,
Yaraladi u dondan.
Shuning uchun har inson,
Ko'p minnatdor dehqondan.

Non ham non, ushog'i ham,
Isrof qilmaylik uni.
Non qadriga yetmagan,
Xor bo'ladi bir kuni.

*Akmal SOLIYEV,
Namangan viloyati, Chortoq
shahridagi 43-o'rta maktabning
7-sinf o'quvchisi.*



КУЁШ

Куёш, куёш, куёшжон,
Нур сочасан бизларга.
Ярашади нурларинг
Қиш, баҳор, ёз, кузларга!

КУШЛАР

Кушлар - бизнинг дўстимиз,
Юришар ҳовлимизда.
Биз уларга дон берсак,
Сайраб беради бизга!



*Аминахон
СИРОЖИДДИНОВА,
Сиеб туман 28-мактаб 4-
"А" синф ўқувчиси.*



ONAJON

Ko'zimga nur, mehr berdingiz,
Tanga mador, qalbinga iymon.
Dil so'zlarim sizga armug'on,
Jonu jahonimsiz, aziz onajon!
Oyga qiyoslagum yuzlaringizni,
Yonimda bo'lsangiz shodman har qachon.

Ko'zimga surtayin izlaringizni,
Mening quyoshimsiz, aziz onajon!
Bag'rimni to'ldirib nuru ziyoga,
Onajon, hayotning guli o'zingiz.
Mehringiz o'xshaydi azim daryoga,
Go'yo lazzatli bol har bir so'zingiz.
*Munisa NISHONOVA, Toshkent
shahri.*

ZILOL SUV

Moviy, zilol, tiniq suv,
To'lqinlanib oqasan.
Marvariddek tovlanib,
Menga juda yoqasan.
Qalqib-qalqib oqishing,
Zavqlantirar odamni.

Irmoqlaring taralib,
Yashnatadi olamni.
*Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Yakkasaroy tumanidagi 118-
maktabning 4-"A" sinf
o'quvchisi.*

ХУСАЙНИ УЗУМ

Боримиздаги узум,
Жуда чиройли.
Ёз фаслида пишар у,
Тотли, мазали.



Куёш нури тушганда
Олтиндай товланади.
Бир бошини узсангиз,
Ликопчангиз тўлади.

*Замира АХРОРОВА,
пойтахтимиздаги 272-
мактабнинг 3-синф ўқувчиси.*

HOZIRGI TOHIR- ZUHRALARNING SEVGISI MUDDATLIMI?

Bu savolga boshidan o'tkazganlar «ha, zamon orqaga qarab ketyapti», deyishadi. Tohir-Zuhra bo'lib yurganlar esa bizniki umrboqiy bo'lib, hech qachon muddatli bo'lmaydi, deb ahd-paymon qilishadi. Sevgi sururini, muhabbat nashidasini surib ko'rmaganlar qayerga og'ishlarini bilmaydilar. Sevgi bor ekan, inson bir-biri tomon talpinib yashaydi. U shunday bir faraxbaxsh, go'zal tuyg'udir. Lekin hozirgi kunda ana shu go'zal tuyg'uga putur yetmayaptimikin? Atrofdagi insonlar qiz bilan yigit o'rtasidagi sevgi atalmish munosabatga qay ko'z bilan qarashmoqda?

Ko'cha-kuyda qo'l ushlab yurgan baxtiyor yosh yigit-qizlarga ko'zimiz tushadi. Ular o'zlarini dunyodagi eng baxtli inson deb bilishadi. Go'yoki hayotning barcha baxt eshiklari ular uchun lang ochiqdek. Lekin qaniydi bu eshiklar doimo ochiq tursa. Qiz yigitni bir kun kelib

aldab yurganini sezadi. Tahqirlashlar, ko'z yoshlar...

Yigit yana boshqasini boshini aylantiradi. Bunisining balki oldingi qizning go'zalligi, chiroyidan boshqa boyligi bordir. To'g'ri-da, yigit kishi qiz go'zalligiga non botirib yeydimi? Xotining bo'lsa mulla jiringli bo'lsin ekan-da, degan xayollar charx ura boshlaydi. Yigit qarasaki faqat boylik bilan hayotni o'tkazib bo'lmas ekan. Puli bo'lib, qo'lidan bir tiyin ish kelmaydigani tili zaharni boshiga uradimi? O'yisini oyoq-qo'li chaqqon, muomalasiga gap yo'q, chiroyda ham bor, o'z tengi bo'lgan bir qizni qidirishga shoshiradi. To'y... Hayot boshlangan. Bir-birini sinamasdan, sevmasdan qurilgan turmushda tushunmovchiliklar, anglashilmovchiliklar ta'sirida oila barbod bo'ladi. Men bu jarayonda qizlarni oppoq qilishga harakat qilmoqchi emasman. Ular ham shu jamiyatimizning bir bo'lagi. Sevgi, oila kabilarda ular bevosita qatnashadi. Guruch kurmaksiz bo'lmaydi, degandek qizlarimiz orasida hayotga, muhabbatga yengil-yelpi qaraydiganlari ham bor. Yigitning qandayligi, qanday oiladanligiga qiziqmasdan, uning shirin so'zlariga

uchishadi. Hayotni, turmushni xayoliy tushunishadi. Oqibatda yuqoridagi xunuk voqealar sodir bo'lishi turgan gap. Bularning barchasiga kim aybdor? Balki, bu savolga javob berish va shu mavzu tegrasida fikr yuritish siz azizlarga havoladir.

*Xurshidaxon NAZAROVA,
Jurnalistika fakultetining 1-
kurs talabsi*

TALABA BEKATI

Bugungi yoshlar bilimga chanqoq. Bu avvalo turli sohaga qiziqishlarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar hayotiy masalalarga chuqurroq qarashga odatlanishmoqda. Masalan, ularning fazilatlar haqidagi qarashlari hech kimni befarq qoldirmasa kerak.

O'zbekiston Milliy Universiteti jurnalistika fakulteti 1-kurs talabasi Alloma Hakimova - yigitlarimiz bir so'zli bo'lsa, og'ir, bosiq va shijoatli bo'lsa, qizlarimizda esa shirin so'zlikni, muloyimlikni va albatta hayoni qadrlaymiz. Nazarimda hozirgi yoshlarimizning hayotga tayyorgarliklari yoshlariga yarasha. Bu bilan nima demoqchiman. Avvalo hozirda kimga shu savolni bersam: „Yoshlar hali hayotga tayyor emas. Hammalari ota-onalariga qaram.

O'zlari mustaqil bir vazifani bajara olmaydilar" - deb javob beradilar. Shaxsan men bu gaplarga qarshiman. Chunki, hozirda yoshlarimiz o'zlariga mos bo'lgan qanchadan-qancha ishlarni o'rinlayaptilar. Umuman olganda, hozirgi yoshlarimizning tayyorgarligi meni qoniqtiradi.

Shu kursning talabasi Bekmatov Po'latbek: - Yigitning ham, qizning ham dunyoqarashi keng, irodasi mustahkam, biron-bir hunar egasi bo'lishini qadrlayman. Hozirgi yoshlarning ayrimlari o'zlarini ulg'aygan sezib tezroq oilali bo'lishga shoshiladi. Ba'zi hollarda esa bunga ota-onalar sabab bo'ladi. Moddiy tomondan turmushga tayyor bo'lgan bilan psixologik va jismoniy tomondan ham oila qurishga tayyor bo'lish kerak.

Suhbatimizdan anglagan bo'lsangiz, yoshlarimizning fikrlari turli-tuman, xilma-xil. Bu fikrlarni yanada rivojlantirish kerak. Fikrlar almashish asosida buyuk ishlar g'oyasi kelib chiqishi turgan gap.

Nilufar ABDURAHMONOVA

KIM G'OLIB BO'LARKIN?

„BMT bilan o'yna“ viktorinasining birinchi bosqichi yakunlandi. Javob yo'llagan uch mingdan ziyod o'quvchilardan to'g'ri javob topgan, ya'ni 18 bal to'plagan to'rt nafar bolalar finalda ishtirok etish uchun taklif etiladilar. Ular Toshkentlik litsey va maktab o'quvchilari - Aleksey Gluxovsev, Anastasiya Luzinova, Renat Kilkeyev, Renat Shukurov. Viktorina savollarining murakkabligini hisobga olgan holda yana 94 nafar Toshkentlik, namanganlik va nukuslik qatnashchilar finalda mehmon sifatida ishtirok etishlari va taqdirlanishlari uchun taklif qilinadilar. Ular: Feruza Fayziyeva, Dilyora G'aniyeva, Malika Hodiyyeva, Temur Ashirov, Kseniya Vaxtiozina, Aleksey Gnatik, Yevgeniy Gartman, Tanya Demidova, Alisher Ikromov, Sveta Demidova, Kseniya Kameneva, Mariya Kisel, Marat Kilkeyev, Vladimir Kuzmin, Aleksandra Kuprina, Anton Minyazov, Siyovush Salinyanov, Dilya Shmatova, Renat Albetkov, Oysha Ashirova, Igor Azikov, Sevara Anvarova, Nataliya Botvich, Telmon Berdiyev, Komil Valiullin, Kristina Vismar, Albina Giniyatullina, Svetlana Deryugina, Adel

Yodingizda bo'lsa, gazetamizning 20, 22 - sonlarida sizlarga „BMT bilan o'yna“ viktorina savollarini havola etgandik. U nimadan dalolat beradi? Gap shundaki, bugungi kun farzandi olam bilan tillashishga, jahonni anglashga intilmoqda. Xalqaro tashkilotlar haqidagi ma'lumotlarni o'qibgina qolmay, uqishga jazm aylagan. Agar yutuqni qo'lga kiritisa, Shvetsariyaga sayohat qilgay. Kim ham olis safarlarni orzu qilmaydi, deysiz? Shuning uchun ham faol o'quvchilarimizdan uch mingdan ziyodi ushbu viktorinada ishtirok etdilar. Final bosqichiga to'rt nafari yo'llanma olgan bo'lsa, to'qson to'rt nafar qatnashchilar o'zlariga munosib hadyalarga ega bo'ladilar.

Yengalichev, Albert Yengalichev, Mayya Yenileyeva, Ramil Yeneleyev, Elvira Ziyatdinova, Venera Ziyatdinova, Indira Iraliyeva, Jenya Kalinkin, Mariya Kondratyeva, Vsevolod Lubensov, Sanjar Lutfullayev, Aleksandr Mitreykin, Komila Nazarova, Liliya Potapova, Karina Perkova, Shahnoza Po'latova, Jamshid Rashidov, Yuliya Rahimboyeva, Kseniya Tyan, Gamal Usmonov, G'ayrat Usmonov, Ilya Shvartsman, Nargiza Yo'ldosheva, Tair Ashirov, Iskandar Odilov, Mamed Askerov, Shoxruh Abduvohidov, Aleksandr Azikov, Begzod Abdusalomov, Tursunoy Obidova, Evelenia Artikova, Rustam Alimov, Vladislav Bondarenko, Anna Buranova, Alena Buranova, Yekaterina Golishevskaya, Aziza

Jamolova, Akrom Jamolov, Islom Jamolov, Salavat Jalyayev, Aliya Ireneva, Doniyor Magdazimov, Behzod Mo'minov, Akmal Niyozov, Shaxobiddin Nuriyev, Gulfiya Nuriyeva, Sulhiyo Ro'ziyeva, Mariya Repina, Kamoliddin Soliyev, Gulgun Soliyeva, Saodat Sultonova, Gigos Sarkis'yan, Bobur To'raboyev, Rustam Temirov, Ilhomjon O'rolov, Umida Umarova, Denis Filomonov, Sergey Faneyev, Grigoriy Chelyapin, Zamira Xamidova, Diyor Xo'jayev, Sergey Xotyans, Po'lat Shokirov, Yevgeniya Shin, Yelena Sharayeva, Andrey Sherbakov.

Viktorina uchun 18 ming nusxada bukletlar tarqatilgan bo'lib, undan tashqari „Tong yulduzi“, „Klass“ gazetalarda savollar e'lon qilingan edi. „Oriyat-Dono“ radio to'lqinlari

orqali viktorina kundaliklari berilib borildi. Bunday tadbirlar yanada ko'proq o'quvchilarni o'ziga jalb qilish maqsadida olib borilgan bo'lsa-da, afsus to'g'ri javob yo'llaganlar kamchilikni tashkil qildi. To'g'ri javoblar quyidagicha edi.

1. Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi.
2. 11.
3. Xalqaro dengizlar tashkiloti.
4. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti.
5. BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi.
6. Insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy sog'lomlik holati.
7. Bu bitim piyodalarga qarshi minalarni ishlab chiqarmaslik va qo'llamaslik to'g'risida.
8. Maxatma Gandi.
9. 147.
10. 1500dan ortiq.
11. Ha.
12. Disneylend va Dismeyuorld kompaniyalarida xizmat qilayotganlar miqdoriga teng xodimlar ishlaydi.
13. 18 foiz.
14. (savol istisno qilindi).
15. 900 mingta.
16. Stratosfera ozon qatlamini.
17. 55.
18. (savol istisno qilindi).
19. Polsha.
20. 2001.

„BMT bilan o'yna“ viktorinasining finali 2001 yili sentabr oyida o'tkazilishi kutilmoqda. Yuqorida nomlari qayd etilgan qatnashchilarga finalning aniq muddati shaxsan e'lon qilinadi.

Muharrama PIRMATOVA,
Xalima XAMIDOVA.

Aziz bolajonlar, yodingizda bo'lsa, gazetamizning o'tgan sonlaridan birida „Meshpolvon“ filmining bosh qahramoni obrazini zo'r mahorat bilan ijro etgan Yusufjon ismli tengdoshingiz haqida hikoya qilgandik. Bugun esa ana shu filmdagi Achaxon obrazi ijrochisi Malikaxon Mahmudova bilan suhbatlashmoqchimiz.

Malika ham siz bizning tengdoshimiz, Toshkentdagi 178-maktabning 9-sinfida o'qir ekan. Istarasi issiq, shaddod, xushro'ygina qiz. O'tgan yili maktabida bo'lib o'tgan „Navro'z malikasi“ tanlovida 1-o'rinni egallagan ham bejiz emas. Shundanmi, film ijodkorlari juda ko'plab o'g'il-qizlar orasidan aynan uni tanlab olishibdi. Malikadan bu haqda batafsilroq so'zlab berishini so'radik:

- Hammasi o'tgan yilgi yozgi ta'tildan boshlandi. Oqtoshdagi „Nilufar“ nomli oromgohda dam



olayotgandim. Bir kuni qoq peshinda bosh yetakchimiz hammamizni o'yin maydoniga yig'ilishimizni so'radilar. Bir zumda saf tortdik. Oradan biroz muddat o'tgach, gap yo'q, so'z yo'q, yana hammaga javob berib yuborishdi. Hayron bo'lib, yotoqxonaga qaytayotgandik, yetakchimiz meni yoniga chaqirib qoldi. „Malika, sen qol. Manavi amaki-xolalaring sen bilan gaplashishmoqchi“ dedilar. Ular meni turli holatda suratga tushirishdi. Keyin bilsam, bu „amaki, xola“larim „Meshpolvon“ filmining operatori Tal'at aka Mansurov hamda uning ikkinchi rejissyori Alfiya opa Miftaxovalar bo'lib, filmdagi Achaxon roliga mos qizlarni qidirib yurishgan ekan. Ular telefonimni yozib olishdi-da, biror yangilik bo'lsa, qo'ng'iroq qilamiz, deya qaytib ketishdi...

Ta'tilning ikkinchi oyida ham oromgohga yo'l oldim. Oradan biror haftalar o'tar-o'tmas oyim kelib meni uyga olib ketdilar. Sababini so'rasam, tanlovdan o'tibsan, yaqinda filmni suratga olish ishlari

ACHAXON -BERTAXONIM NABIRASI EKAN

boshlanarkan, dedilar. Ming bir xayol, hayajon bilan studiyaga keldim. Har bir rol uchun besh, olti nafardan da'vogarlar bor edi. Achaxon roliga ham biri-biridan chiroyli, ko'rkam qizlar kelishibdi. Ularni ko'rib, hafsalam pir bo'lib ketdi. „Bekor kelibman, baribir o'tolmasam kerak“ degan xayolga ham bordim. Buni qarangi, menga sevimli aktrizamiz Gulchehra opa Jamilovaning „O'tkan kunlar“ filmida kiyib, suratga tushgan nimchasini berishibdi. Shunda Alfiya opa: „bu nimcha senga omad keltiradi, meni aytdi darsan, tanlovdan sen o'tib ketasan“ dedilar. Ularning gaplariga ishonqiramay, uyga qaytdim. Omadim bor ekan, tanlovdan o'tibman. Sentyabr oyida filmni suratga tushirish uchun Qo'qonga jo'nab ketdik...

- Maktabdagi o'qishlaringiz nima bo'ldi? - so'rayman ajablanib.

- Tasodifni qarangi, filmdagi Oytumor roliga sinfdoshim Zilolani tanlab olishibdi. Suratga olish ishlaridan bo'shadik deguncha, ikki dugona dars tayyorlashga kirishamiz. Men ingliz tilini o'qisam, u tarixni o'qiydi. Keyin esa o'qiganlarimizni bir-birimizga gapirib beramiz, savol-javoblar qilamiz. Shu tariqa mustaqil tayyorlanib, imtihonlarni faqat a'lo baholarga topshirdik.

- Filmni suratga olish jarayonida qiziqarli voqealar ham sodir bo'lgandir?

- Bir kuni Meshpolvonimiz qornini changallab, yotib oldi. Havo bulut bo'lganligi uchun suratga olish ishlari orqaga surilayotgandi. „Endi shu yetmay turuvdi“ deya jig'ibiyron bo'ldilar rejissyorimiz Melis aka Abzalov qo'llarini tizzalariga urib.

yopishtirishayotganda, qochib yurardilar...

- Malikaxon, bizga ma'lumki, filmga ovoz berish eng murakkab jarayonlardan biri sanaladi. Odatda bolalar filmlariga ovoz berish uchun ham katta yoshdagi taniqli, tajribali aktyorlarni taklif qilisharkan. „Meshpolvon“ dagi bosh rolga ovoz berish uchun Yusufjonni, Achaxonga esa o'zingizni taklif qilishibdi. Bu sizda aktyorlik mahorati borligidan dalolat albatta. Ulg'aygach sizdan ajoyib aktyor chiqishiga ishonamiz. O'zingizchi?

- Qanaqa aktyor chiqishini bilmaymanu lekin men telejurnalist bo'lishni orzulayman. „Sen haqingda va sen uchun“ nomli ko'rsatuvga boshlovchilik qilganimda, qalbmida bu kasbga mehr uyg'ongandi. Bu qarorimdan buvijonim - O'zbekiston xalq artisti Bertaxonim Davidova ham xursandlar. Chunki ulardek san'atkor bo'lishni orzulab yurgan paytlarimda buvim hayotiy tajribalaridan kelib chiqib: „San'atkor bo'lish juda yaxshi. Lekin bu kasbning mashaqqatlariga bardosh berishning o'zi bo'lmaydi. Ijodiy safarlarda bo'lib, oila, bola-chaqalar uchun ham fursat topolmay qolardik. Bu kasbni tanlashingdan avval jiddiy o'ylab ko'rishingni maslahat beraman“ deya ko'p takrorlardilar.

- Film namoyishidan so'ng tengdoshlaringiz orasida tanilasiz. Taniqli bo'lish yoqadimi?

- Taniqli bo'lish kimga ham yoqmaydi deysiz.

- Qaysi kasbni tanlamang, hamisha o'z kasbining mohiri sifatida taniqli, yaxshi inson sifatida e'zozli bo'lib yuring, „Achaxon“!

Sharofiddin RASULOV,
Nargiza JALILOVA
suhbatlashdi.



«O'RNAK OLSIN SIZDAN JAHON, KO'Z TEGMASIN LEK, HECH QACHON»

Tahririyatimizga maqola va she'rlarini ko'tarib bir qizaloq otasi bilan kirib keldi. Bizga notanish, ayni paytda tanish bo'lgan qizaloq Dilafro'z Bahriddinova ekan. Yodingizda bo'lsa Dilafro'zning bir qator she'r va maqolalari gazetamiz sahifalarida e'lon qilingan edi.

Bugun esa u bilan yaqindan tanishasiz. Xo'sh, navoiylik tengdoshingiz ta'tilda nima ishlar bilan band ekan-a?

Dilafro'z Navoiy viloyati, Nurota shahridagi Xojiqul Xudoyqulov nomli 1-ixtisoslashgan maktabning 5-sinfini a'lo baholar bilan yakunladi. Shu bilan birga Nurota shahridagi Doni Zokirov nomli san'at maktabining 2-sinf o'quvchisi.

1- maktab matematika, ingliz tiliga ixtisoslashgan bo'lib, 1-sinfidan o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi. O'qish va o'rganishga astoydil mehr qo'ygan Dilafro'z ham maktabga olti yoshidan borgan. Hozirda a'lo o'qishi, namunali xulqi uchun tuman hokimligi unga stipendiya ajratgan.

Dilafro'zning she'r va maqolalari „Gulxan“ jurnalida, viloyatdagi „Do'stlik bayrog'i“, „Yangi avlod“, xotin-qizlarning „To'maris“ gazetalarida, shahardagi „Nurnoma“ gazetalarida chop etilib turiladi.

- Dilafro'z tuman miqyosida o'tkazilgan „Kimning xati chiroyli?“, Al-Motrudiy va Kamoliddin Behzod tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan „Eng yaxshi yozilgan she'r“ hamda „Havaskor shoirlar“ tanlovlarida birinchi o'rinni egallagan,- deya fikr bildiradi maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Nozigul opa Sharipova. - U maktabdagi

drama to'garagining a'zosi. „Qo'g'irchoq“ teatrida timsollarga ovoz berishda barchaning olqishiga sazovor bo'lib kelayapti.

2001 yilda o'tkazilgan „Viloyat pioninchilari“ ko'rik tanlovda ishtirok etib, rag'batlantiruvchi yorliq oldi. Shu bilan birga u qo'li gul rassom ham. Mo'yqalam bilan ishlashda

tengdoshlari orasida yaqqol ajralib turadi. Dilafro'z o'zining badiiy tasvirlari bilan „Bolalar san'ati-2000“ tuman festivalida ham ishtirok etib, faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Bir so'z bilan aytganda ham badiiy so'z san'ati, ham tasviriy san'at, ham musiqa san'atiga xos ko'p qirrali iste'dod sohibasi Dilafro'z

Bahriddinova mustaqil yurtimizga munosib farzand bo'lib yetishishiga ishonchimiz komil.

- Bobom bilan suhbatlashsam, fikrlarim teranlashadi. Ko'p narsalarni anglayman,- deydi Dilafro'z. - Bir kuni charxpalak so'zini tushunmadim. Bobom tushuntirib berdilar. Ularning so'zlaridan ta'sirlanib, „Charxpalak“

she'rimni yozdim.

Yosh bo'lsam-da fikrlarim bir olam,
Hayot mag'zi yuragimdadir go'yo.
Lekin, ba'zi ishlarni ko'rganimda,
Yodga oldim: „Charxpalakmi bu dunyo?“

Sertashvish, sershovqin kunlarga guvoh,
Bo'lganligim men uchun go'yo bir ro'yo.
Qayga shoshib, qayga borar odamlar,
Hayron qoldim: „Charxpalakmi, bu dunyo?“

Kimdir xafa, kimdir boylikni quvar,
Yaxshilar-chi, taratsam deydi ziyo.
Yaxshi-yomon bir bo'lgan bu zamonada,
O'yga toldim: „Charxpalakmi, bu dunyo?“

Bobom matematika o'qituvchisi bo'lganlar. Shuning uchunmi, doimo matematikaga doir misol va masalalar beradilar. Gohida ularni yechishga biroz qiynalaman. Shunda ham bobojonim javobini aytmaydilar. Balki vaqt beradilar. Doimo o'zim mustaqil va to'g'ri ishlab ko'rsataman. Bobomning xursand bo'lganlarini ko'rib, yanada ko'proq o'qishga harakat qilaman. Dam olayotgan vaqtlarimizda esa she'rlarimdan o'qib berishimni so'raydilar. Diqqat bilan tinglab, maslahat beradilar.

„Tong yulduzi“ gazetasi har bir sonini birgalikda o'qib chiqamiz. Pochtachi amaki ham gazetani kutayotganimizni bilib, o'z vaqtida olib keladi.

Tuman hokimligining homiyligida maktabdoshlarimdan besh nafarining she'rlar to'plami chop etilayapti. Shular orasida mening she'rlarim ham borligidan xursand bo'laman. Ustozlarim- Nigora, Nozigul, Feruza opalarning mashaqqatli mehnati borligini his qilaman. Kelajakda jonajon vatanimga ijodlarim bilan xizmat qilsam, insonlar ko'ngliga yo'l to'pa olsam, deymen. Zero orzuning ijobati- irodayu jasoratda.

Feruza ODILOVA suhbatlashdi.

Charxpalak



„TONG YULDUZIM“

Qatma-qat sahifangda,
Rango-rang mavzular bor.
Har bir sahifang o'qib,
Yangisin kutamiz zor.

She'rlaring bizga go'yo,
Berar misli zo'r qanot.
„Xandalar“ kulgusidan,
Yuraklar bo'ladi shod.

Goh qo'lga qalam olib,
Ijod qilib ko'ramiz.
Sahifangdan joy olsak,
Kuch g'ayratga to'lamiz.

Ko'z tegmasin so'zingga,
Mening kecha-kunduzim.
Peshvoz chiqib kutayin,
Ey, mening „Tong yulduzim“.

TENGDOSHLARIM
Hissangiz bor har sohada,
Tinmangiz yoshlik chog'ida.
Elimizning panohida,
Shijoatli tengdoshlarim.

Sportda ham bo'ling ilg'or,
Omad bo'lsin sizlarga yor.
Hech narsaga bo'lmangiz zor,
Qat'iyatli tengdoshlarim.

O'rnak olsin sizdan jahon,
Ko'z tegmasin lek, hech qachon.
Bo'ling deymen doim omon,
Sof niyatli tengdoshlarim.

Dilafro'z BAHRIDDINOVA

Onajonim - tabiat

AKVARIUMNI TOZALASH

Tip-tiniq suv har xil rangdagi baliqchalarning o'ynab suzishi odamga qandaydir xush kayfiyat bag'ishlaydi. Ammo akvariumning ichki devorlari yoz kunlari ko'k mog'or bilan tez-tez qoplanib turadi. Bu esa siz ko'nikib qolgan manzarani buzadi.

Siz oyna yuzini toza latta bilan ichkari tomonidan artib tozalamoqchi bo'lasiz. Bunday paytda suv albatta loyqalanadi. Uning ichidagi baliq va o'simliklarga zarar yetadi.

Xo'sh, loyqalatmasdan tozalash mumkinmi? Mumkin. Buning uchun dumaloq magnit va xuddi shu magnitga o'xshagan temir disk topasiz. Temir disk orqasiga toza latta o'rnatasiz. Ularni ikki tomondan, birini ichkari tomondan, birini tashqi tomondan o'rnatasiz. Akvarium devorlarini tozalash uchun tashqaridagi magnitni sekin bir tomondan, ikkinchi tomonga silkitasiz. Shu harakat bilan akvariumingiz toza holga keladi.

MO'JIZA JONIVOR

Qadim zamonlarda hayvonlar bilan qushlar orasida juda katta jang bo'libdi. Jang bir necha kun davom etib, qushlar safida yurgan ko'rshapalak buni emasman-ku, qushlarnikidek emas, jun qoplagan" - deb, olibdi.

Keyingi janglarda esa qushlar chekina boshlabdi. Buni „Men hayvon emasman-ku, qushlarga o'xshab uchib qushlar tomonga o'tib olibdi. Nihoyat, hayvonlar podshosi Burgut uchrashib, qonli jangga shartnoma tuzishibdi.

Ammo, ular ko'rshapalakni ikki qattiq uyaltirishibdi. Shundan yashab, kechalari ovqat Bu bir rivoyat, xolos.

qushlar bilan hayvonlar o'rtasidagi jonivordir. Hayvonlarga o'xshashligi shundaki, u bolasini tirik tug'adi, keyin esa sut berib katta qiladi. Qushlarga o'xshash tomoni shundaki, u hamisha uchib yuradi. Yashash sharoiti parrandani eslatadi. Odamlar uni qush deb biladilar. Fanda u hayvon hisoblanadi.


Ko'rshapalak foydali jonivor hisoblanadi. Shuning uchun ham ko'rshapalakni „tungi qaldirg'och“ yoki „tungi sanitar“ deyishadi.

Uning yemishi ham qaldirg'ochnikidek: pashsha, chivin, qo'ng'iz va kechasi uchadigan zararkunandalar hisoblanadi.

U bir kechada o'rta hisobda 500 ta zararkunandaga qiron keltiradi.

Ko'rshapalak qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashda eng yaxshi biologik qurol hisoblanadi.

Hurmatli o'quvchilar, bu jonivorga ozor bermanglar!




g'olib chiqib, hayvonlar ko'rgan ko'rshapalak yana mening qanotlarim bor, yuraman“ deb, o'ylabdi-da,

Arslon bilan qushlar podshosi xotima yasab, yarashish haqida

yuzlamachilik qilgani uchun buyon u qorong'u g'orlarda izlarmish.

Haqiqatdan ham ko'rshapalak



Ali KO'CHIYEV,
Sirdaryo viloyati.

(Boshi o'tgan sonlarda)

SIYOSIY G'O'RLIK

Ansamblimiz o'z dasturini bir necha bor namoyish qildi. Har safar zalga odam sig'may ketardi. Hatto bir marta ota-onalar uchun ham tomosha ko'rsatdik. Ba'zi qizlarimiz uyalishdi shekilli, o'zlariga biriktirilgan, ayniqsa salbiy rollarni qiyomiga yetkazib o'ynasholmadi.

„Soz va ovoz“ haqida gazetalar maqola bosdi. Uning dovrug'i shaharga yoyildi. Poytaxtning gavjum parklaridan birida o'tkazilgan havaskorlik bellashuvida ishtirok etib, birinchilikni oldik.

O'zimizning konsert chiptamizni chiqardik. Shunda ham talabgorlar ko'payib, maktabning ikki yuz kishiga mo'ljallangan zali torlik qilib qoldi.

„Bolalarni pulga o'rgatish ular tarbiyasiga noto'g'ri ta'sir qiladi“, degan gap chiqib, maktab partiya tashkilotining qattiq qarshiligiga uchradi. Lekin biz tushgan „mablag“ni teatlardan sotib olinadigan „rekvizit“larga sarflash, sahna bezaklariga ishlatish va sarf-harajatni tiyinma-tiyin hujjatlab borishga va'da berdik.

Maktabimiz „maxsus“ hisoblanganligi uchun „Soz va ovoz“ dasturi asosan hind muzikasi va o'sha paytdagi mashhur hind filmlaridan olingan qo'shiqli ko'rinishlardan iborat bo'lardi: maktabning keng sahnasi aynan kinodagidek qilib bezatilar, qiz-yigitlar xuddi artistlarga taqlidan kiyinishar... „sozanda“larimiz ham aynan shohona libos bilan hindistonlilar qiyofasiga kirishardi. Ular qarshisiga qo'yilgan mikrofonlar ishlamas, vaholanki pastroqqa o'rnatilgan dinamiklardan kuy va qo'shiq yangrab turardi. Biz texnik imkoniyatlarga ancha boy bo'lgan „maxsus maktab“ radiouzelidan unumli foydalanardik. Xullas, magnitofonlar qulog'i buralishi bilan sahnani lojuvard ranglar qoplab, haqiqiy tomosha boshlandi. „Cholg'uchilar“ qo'llaridagi musiqa asboblari bilan kuyni shunday qoyillatib ijro etishardiki, hozirgi zamon tili bilan aytganda bu „klip“ligi

hech kimning xayoliga ham kelmasdi... Darvoqe, soz bilan ovozga qarab xatti-harakat qilish usulini 1964 yillardayoq bizning maktab o'quvchilari qo'llab, hammani qoyil qoldirishgan. Hatto yirik sahna asari „Maysaraning ishi“ operasini „klip“ uslubida qo'yib, Sulaymon Yudakovday buyuk kompozitorni qoyil qoldirganmiz. „Maktab sahnasida opera“ degan sarlavha bilan gazetalar xabar bosishgan.

Biroq, „texnik sabablarga ko'ra“ pand yegan paytlarimiz ham bo'lgan: Samarqandga qilgan safarimiz chog'ida yo'l-yo'lakay G'allaorolda to'xtab, bir kecha tunadik. U yerdagi Saribozor guzari klubida konsertimiz endi avjga chiqqanda elektr o'chib qolgan...

Tomosha dasturimizning „Xanda“ qismida o'quvchilar ayniqsa taqlid usulini qoyillatishardi: dastlab boshqalarnikiga o'xshamas xatti-harakatlari. Dars o'tish yo'riqlari bilan ajralib turadigan direktorimiz boshliq, bir guruh domla va mualliflarimizni sahnaga „olib“ chiqdik... So'ng, Charli Chaplinga qiyoslab, jazavaga tushib nutq so'zlagan

Mansurov

o'takasini yorib yubordi. U zalni tashlab, pildiraganicha chiqib ketdi.

Ertasiga bo'ldi to'polon, bo'ldi to'polon... Masala ikkita siyosiy „g'o'r“ studentu musiqa o'qituvchisiga chora ko'rish, guruhni tarqatib yuborishga borib taqaldi.

Mansurov bizga nisbatan chora ko'rolmadi, chunki uchchovimiz ham uning „a'zosi“ emasdik. To'garakni tarqatib yuborishga esa direktorimiz yo'l qo'ymadi. Bizlarni xonasiga chaqirtirib olib, „ramkadan chiqib ketmanglar“ deb nasihat qildi. Chunki, Bo'rixo'ja aka rayon maorif boshliqlari uchun shahar oldida to'garagimiz balogardonligini yaxshi bilardi: maktab badiiy havaskorlik to'garagiga e'tibor sifatida bizning guruh nomi hisobotlarda qayd etilar, ma'ruzalarda tilga olinardi.

HAZILDAN ZIL CHIQDI

Obro'yimiz chakki emasdi. Shunga qaramay oraga shayton aralashdimi, hazildan zil chiqib, bir nechta hamkasbimizning umriga zomin bo'lay deganmiz: sakkizinchi mart bayrami arafasi edi. Yangi dastur asosida maxsus tayyorgarlik ko'rdik. Axir, jamoamizning ko'pchilik qismini tashkil etuvchi opa-singillarimizning yilda bir nishonlanadigan bayramini esda qoladigan qilib o'tkazib berishga bel bog'lagandik-da!

Boshlovchi minbarning bir chetiga qo'yilgan telefonda kim bilandir gaplashmoqda. Parda ochiladi.

- Rahmat domla, rahmat! E'tiboringiz uchun tashakkur! Qahramoningiz hali zamon kelib qolsalar kerak. Xotin-xalaj, qiz-u juvon, qaynona-kelin, cholu-kampirlar zalni to'ldirib, ko'zlari to'rt bo'lib kutib o'tirishibdi, - boshlovchi go'shakni joyiga qo'yib, zalda o'tirganlarga qaraydi:

- Shu qutlug' ayyomda buyuk yozuvchimiz Abdulla Qahhor

Dadaxon NURIY

Sizlarni tabriklash uchun mashhur „Nutq“ asarlaridagi mashhur qahramonlari - lektor janoblari yuborgandilar, hozir u kishi kelib qolsalar kerak!

Oldingi qatorda o'tirgan, katta papka qo'litiqlab olgan shlyapali pakana „kishi“ (Solih) sahnaga chopib chiqadi: - O'rtoq xotin-qiz va juvon opalar hamda xolalar. Bunday tig'iz paytlarda minbar huvillab qolmasligi kerak. Men shtatsiz, ya'ni jamoatchilik asosida ish yurituvchi rezervdagi lektoraman. Hay-hay, bu minbar aynan bizbop, bemalol chiqib olib nutq so'zlayveradigan joy ekan. Shunday qilib, makkajo'xorichilik haqida leksiya boshlab turamiz.

Boshlovchi mikrofoniga yaqinlashib, uni ogohlantiradi:

- Axir bugun sakkizinchi mart - xotir-qizlar bayrami kuni-ku!

I m e n n o ,

makkajo'xorining xotin-qizlar uchun foydali tomonlari

haqida so'zlaymiz. Ya'ni, masalan uning popuklarini solib qaynatilgan bir paqir svuga sochni bir hafta davomida solib turilsa, shunaqangi o'sib ketaveradiki, to'xtatib ololmaysiz. Bu amaliy tajribalarda isbotlangan. Lekin, o'rtoqlar, bu siyosiy, o'ta muhim masalaga panja orasidan qarashday e'tiborsizlik ham yo'q emas. Mana, jonli bir misol: maktab hovlisiga ekanlik ikki ariq makkajo'xorini qorovul Ravshan akaning eshagi bitta qo'ymay yeb qo'ygan. Unga nisbatan hurmatli Mansurov domlamiz hech qanday chora ko'rmay, tanish-bilishchilik yo'lini tutib kelmoqdalar.

Zalda o'tirganlardan ikki kishi ketma-ket o'rnidan turib ketdi. Ularning biri partkom Mansurov, orqaroqda qo'lini paxsa qilib olgani esa qorovul Ravshan aka edi.

Ayni paytda sahnaga eshakka mingashib olgan „Naynov“ (Vakil Vahobov), lektor (Nig'mat Abdullayev)lar kirib kelishadi. Eshak so'tasi qayirib olinmagan uzun makkajo'xori poyasini chaynab kelmoqda...

(Davomi bor).



MENDAN O'RGANING, MENGA O'RGATING

-Yoz faslini juda ham yaxshi ko'raman. Chunki yozda asosan uy yumushlaridan tashqari qiz bola bilishi zarur bo'lganlar, bichish-tikish, qandolatli shirinliklar pishirish va qishga tayyorgarlik ko'rish bilan band bo'laman,- deydi Toshkent tumanidagi 2-maktabning 6-sinf o'quvchisi Dildora Olimjonova. -Mana hozirgi kunda meva-chevalardan murabbo, kompot qaynatyapmiz. Sabzavotlarni esa goh qovurib, goh ikra qilib, gohida tuzlab yopyapmiz. Bunday ishlarga oyijonim rosa mohirlar. Menga ham sir-sinoatlarini o'rgatdilar.

Butunligicha «marinovka» qilib yopiladigan sabzavotlarni quyidagicha uch xil tayyorlash mumkin,- deydi o'quvchi.

1. Tozalab yuvilgan 2-3 litrlik bankalar qaynab turgan suv bug'ida sterilab olinadi. Unga toza yuvilgan pomidor, ikki tomonidan kesilib, tuzli suvda

turgan bodring, bulg'or qalampiri, 2-3 bosh sarimsoqpiyozning bo'laklari, ukrop, qora-murch, yana boshqa ko'katlardan solinadi. Siropini alohida tayyorlash kerak. Buning uchun 10 litr suvga 1 stakan tuz solib qaynatiladi. Qaynoq suv bankalarga quyiladi-da, bir necha daqiqadan so'ng to'kib yuboriladi. Ikki marta shunday qilgandan keyin uchinchi marotaba quyilgan sirop bilan banka yopiladi. (Eslatma. Siropga bir choy qoshiq sirka qo'shsa ham bo'ladi). Har safar sirop yangidan tayyorlanadi. Bankani yopishdan oldin 15 daqiqaga mantiqasqon pallasiga qo'yib, yana bir bora bug'latib olsa ham bo'ladi. O'shanda masalliq xuddi yangiday, ezilmay, oyim aytganlariday „kirsillab“ turadi.

2. Yuqorida aytilgan masalliq bankaga solinib, sirop quyiladida, 45daqiqa mantiqasqon pallasida bug'lanadi. Keyin yopilaveradi. Natijada qishda nisbatan yumshoq pomidor va bodring hosil bo'ladi.

Ochil dasturxon

3. Bu mainovkaga bodring qo'shilmaydi. Go'sht qiyatidan chiqarilgan pomidorlar alohida idishda 5 daqiqa qaynatiladi. Keyin pomidor urug'i suzib olinadi, bir litr pomidor suviga bir qoshiq tuz va bir qoshiq shakar solinib, bankaga quyiladi. So'ngra, suvi qaynab turgan kattaroq idishga bankasi bilan solinadi va 30 daqiqa qaynaydi. Bunday „sokli“ marinovka juda ham mazali bo'ladi.

Men tengdoshlarim bilan ko'pgina o'gitlar xususida o'rtoqlashishim mumkin. Hozircha bas qilayda, dugonalarimdan ham yangi maslahatlarni eshitay.

Nargiza ABDULLAYEVA yozib oldi.

TVOROGLI TORT

Masalliq: 200 gr. margarin, 1 st. shakar, 6 ta tuxum, 1 kg. tvorog, 3

st. un, soda va sirka.

Tayyorlanishi: Margarin va un kukun simon qilib uqalanadi va soda, sirka solib, gaz patnisiga solinadi.

Tog'orachamizga 3 ta tuxum va yana 3 ta tuxum sarig'ini o'zi, choy qoshiqda soda va sirka, 1 st. shakar va tvorogni solib aralastirib, patnisdagi xamir ustiga solinadi.

Boyagi 3 ta tuxum sarig'idan olib qo'yilgan tuxum oqini yaxshilab ko'pirtiramiz, ko'pik simon bo'lgach 1 st. shakar solamiz. 5 yulduzli krem quyish moslamasidi patnisdagi massalig'imiz ustiga quyib bezatamiz. Gazga o'rtadan pastroq olovga qo'yib, 40 daqiqa davomida pishirib olamiz.




„TOSHKENT“ SALATI

Masalliq: 3 dona trup, yarim kg. pishgan go'sht, 1 piyola qizargan piyoz, 450 gr. mayonez, 4 ta tuxum va tuz, zira.

Tayyorlanishi: Artib olingan trupni, go'shtni, tuxumni somoncha shaklida to'g'raymiz, ular ustiga qizdirilgan piyoz solib, tuz va zira ham qo'shamiz. Salat yog'idan 1 yoki 2 osh qoshiqda solib, oxirida mayonez qo'shiladi. Hammasi aralastirilib, 1 soatga-salqin joyga qo'yiladi.

Salat tayyor bo'lgandan so'ng, turli xil qilib bezatiladi, buyog'i o'zimizning ixtiroimizga bog'liqdir.

Shahlo MUTALOVA.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

SOHIB - UL-QIRON

1369 yil 10-ramazon kunida ko'hna Balx shahrida butun Movarounnahr o'lkasidan vakillar to'planishdi. Bu kun hukmdorni saylovchi qurultoy bo'ladi. Sayyidlar, ulamolar, darveshlar, savdogarlar tilidan Temurbek nomi tushmaydi. Shu bilan birga hech qanday hukmdor bo'lishini istamagan, o'zicha mustaqil bo'lishga o'rganib qolgan Xorazm, Hirot, Marv kabi viloyatlar vakillari esa joy-joylarda to'planishib, Temurbek haqida xunuk gaplar aytishadi. Uni qaroqchi va talonchi sifatida mazaxlovchi gaplarni tarqatishadi.


Ammo ular atrofida uymalashib yurgan naqshbandiyalar-

ning ovozlari bu tovushlarni bosib ketardi. Temurbekning muxoliflari joylarda zikr tushib, „Temur, Temur!“ deya hayqirayotgan qalandarlar, darveshlar vajohatidan damlari ichiga tushdi. Atrofdan yurgan bahodirlarning vajohatlari ham muxoliflar uchun hech qanday yaxshilikdan dalolat bermas edi.

- Kim islom dini zafarini tilasa, Temurbek uchun ovoz bersin!

Bunday xitob - hayqiriqlar Balx shahrining har burchagidan yangrar edi. Munajjimlar esa atroflariga odamlarni to'plab, tungi osmondan charaqlab turgan yulduzlarni ko'rsatib, Temur yulduzi porlab turganiga ishora qilishdi.

Sohib-ul-qiron! Yulduzlar sultoni! Munajjimlar Temurbekka shunday unvonni berib, shunday atashdi. Bu atama barchaning og'ziga



Hamdam SODIQOV

Temurbekni kigiz oldiga keltirib, unga xitob qildi.

- Temurbek! Senga xalq nomidan shuni aytaman. Senga faqat Olloh irodasiyu adolatgina qonun bo'lsin. Bordi-yu, adolatdan chekinsang, mana shu ko'z o'ngingda turgan kigiz parchasidan mahrum bo'lg'aysen. So'yla endi, xalqqa gapingni! Temurbek atrofga diqqat bilan razm soldi. Minglab chehralar unga tikilgan. Ular orasida ko'p yillik safdoshlari, birodarlari, quroldosh do'stlari qatori unga hasad, g'azab, nafrat ila qarab turganlar ham turibdi.

- Sizlarni chorlaganimda oldimga kelasizlarmi? Qayerga yetaklasam, o'sha yoqqa borasizlarmi?

- Boramiz, boramiz!

Qasamyod marosimi yakunida Mir Said Baraka unga oltin kamar, hashamdor qilich

va yoqut isirg'a topshirdi. Nog'oralar, karnay-surnaylar sadosi ostida sayyidlar va sarkardalar Temurbekni kigizga o'tqazishdi.

- Ollohu akbar! - deya osmonga uch marta ko'tarib, pastga tushirishdi.

Qurultoy yakdillik bilan Temurni hukmdor qilib saylangani haqida qarorini tantanali e'lon qildi:

- Biz, sayyidlar, ulamolar, sarkardalar va xalq Temurbekni ko'ragon qilib ko'tardik. Biz unga barchamiz so'zsiz itoat etish haqida qasamyod qilamiz.

Qurultoy udumga ko'ra Chig'atoy taxtiga Chingizxon avlodi Suyurtg'amishni ko'tarib uni xon deb e'lon qildi. Mamlakat tarixida bu ajabtovur yangilik bo'lib, u Temurbek g'oyasining amaliy ijrosi edi.

(Davomi bor)

YETTI IQLIM HUKMDORI

tushdi. Sohobqiron! Asriy chinorlar atrofida yig'ilgan qurultoy

qatnashchilari yerga to'shalgan xonlik kigiziga mahliyo tikilishadi. Kim unga o'tqazilib, xon deb e'lon qilinishini barcha qiziqib kutadi. Nihoyat, ular oldiga atrofni ulamolar o'ragan Naqshbandiyalar tariqati rahbari - asli Makkadan kelgan mir Said Baraka keldi. Hamma uning Temurbekning piri - ustozini ekanligini yaxshi biladi.

- Temurbek! - Mir Said Baraka oldiga ehtirom ila qadam bosgan sarkardaga nigohini qadadi.

- Xalqdan so'rang-chi, u sizni hukmdor sifatida saylanishingizni istaydimi? Minglab hayqiriqlar javob tariqasida butun Balx uzra yangradi.

- Siz bizning sultonimiz! Islom shamshiri!

- Sohob-ul-qiron!!!
Bu qurultoy qatnashchilari ovozlari taqdirini hal qildi. Mir Said Baraka

ARMON

Dunyodagi eng yomon tuyg'u - armon ekan. U bir umr qalbingni qayeridadir o'kinch bo'lib, hijron bo'lib yashayverar ekan. Ha, o'sha kunni sira unutmayman. U kun mening qalbinga armon bo'lib muhrlanib qoldi...

Kun peshindan oqqandi. Birdan telefon jiringlab qoldi. Telefon trubkasini ko'taraman, onajonim ekanlar. Bilsam, dadamlar yurak xuruji bilan kasalxonaga tushib qolibdilar. Yuragim bir orziqib tushdi. Axir bir necha kundan beri aloq-chaloq tushlar ko'raman, bugun esa yuragim shunday siqilib, bezovta bo'layotgan edi. Ko'rgan tushlarim ko'z oldimdan bir-bir o'ta boshladi. Nahotki

tushim o'ng kelsa...

Shu kuni o'g'limning tug'ilgan kuni edi. Bir ikkita o'rtoqlari kelishgan. Yuragim negadir g'ash.

Amallab ovqat va shirinlik pishirib berdim. Nailoj. Farzand ekan.



Oshxonaga kirib, kech bo'lganini ham bilmay qolibman. Kasalxonaga ketay desam, bolalar yolg'iz. Narsalarimni tayyorlab, kiyinib, turmush o'rtog'imni kutib turibman. Dadasi kelishlari bilan bo'lgan voqeani aytdim. Biroq ular juda ham charchaganliklarini, kech bo'lib qolganligini, ertalab issiq non va qaymoq olib nonushtaga borishimizni aytdilar.

Tun asta-sekin borliqni o'z hukmiga bo'ysundirgan. Atrof jim-jit. Faqatgina unda-bunda katta yo'ldan o'tayotgan yengil avtomashinalarning ovozi xayolingni bo'ladi. Uxlay deyman - u kipriklarim menga bo'ysunmaydi. Yuragimda qandaydir g'alayon, g'ashlik, tinchlik bermaydi. Birdan telefon jiringlab qoldi. Uning o'qdek ovozi shunday cho'chitib yubordiki, butun xayollarim to'zg'ib ketdi. Yuragim hapriqib, tez-tez ura boshladi. Trubkani ko'taraman. Onajonimning tashvishli ovozlari butun vujudimni titratib yubordi.

- Labbay?!
- Qizim, narsalaringni yig'ishtirib, uyg'a kel...

Onamlarning yig'laganlari shundoq bilinib turardi. Nahotki, nahotki adajonimdan ajralib qoldim. Nahotki, g'aflat bosdi meni. Nahotki, bir og'iz so'zlarini eshitmay, muzdek tanalarini quchsam...

Ustozlaringiz ijodi

Ey xudo, shunchalik ham xudbin bo'lamanmi? Nega axir o'sha qo'ng'iroqdan so'ng chopib bormayman-a, to'yib-to'yib gaplashib olsam, diydorlariga to'yib olsam bo'lasmidi?! Nahotki, oxirgi marta farzandlik burchini bajara olmadim. Nahot, menga bergan mehr-muhabbatlarining loaqal bir parchasini bo'lsa ham qaytara olmadim?

Adajonim! Balki so'nggi bor ko'rgingiz kelgandir, bir nima aytmog'chi bo'lgandirsiz. Menchi, men, ro'zg'or tashvishi-yu, bolalarim bilan o'ralashib qolibman. Eshitishimcha singlimdan meni so'rabsiz, eshik tomon qarab intiq bo'lganmishsiz, ko'zlaringizda nur so'na boshlasa ham kutaveribsiz. Keyin lablaringiz beholgina pichirlabdi-yu... Bu so'roq, bu savollar girdobi tun-u-kun tinchlik bermaydi. Qalbinning qayerlarinidir og'ritadi. Xayollarim, ko'z yoshlarim menga bo'ysunmaydi. Nihoyat bu og'riqlar, bu armonlar oq qog'ozga sekin-asta to'kilaveradi, to'kilaveradi... Ota-ona topilmas match. Ogoh bo'ling. Yaqinlaringiz yoniga oshiqing. Bot-bot xol-ahvol so'rang! Kechmish-kechirmishingizni bayon qilib turing. Keyin kech bo'ladi. Juda kech...

Dilorom UMRILLAYEVA

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
"KAMOLOT" YOSHLAR
IJTIMOIY HARAKATINING
DASTURIIII. IJTIMOY-IQTISODIY
SOHADA

1. Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, boqimandalik kayfiyatidan xalos qilish, tadbirkorlik qobiliyatini yuzaga chiqarish, ularda bozor iqtisodiyoti ko'nikmalarini, mulkka egalik tuyg'usini shakllantirish.

Harakat otaliq'ida tashkil etiladigan va unga homiylik qiladigan tadbirkorlik tuzilmalarining rivojiga va umuman tadbirkorlik faoliyatiga yangi turtki berish, yoshlarni ish bilan ta'minlashda qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, shu yo'l bilan yangicha fikrlaydigan mulkdorlarni shakllantirish va ularni „Kamolot“ tayanadigan ijtimoiy kuch bo'lishiga erishish.

2. Yosh oilalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish maqsadida „Yosh oila“ dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

3. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'smirlarni harbiy xizmatga tayyorlash, askar va yosh ofitserlar orasida ma'naviy tarbiya ishlarini kuchaytirish, harbiy-amaliy-texnik sport turlarini rivojlantirish borasida tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan hamkorlik qilish.

Harbiy qismlarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda ushbu tizimlar tarkibidagi yoshlar tashkiloti bilan ishlash to'g'risida alohida yo'riqnomalar tayyorlash va shu asosda ish olib borish.

4. Yoshlarning zamonaviy iqtisodiy bilimlarni egallashi, ularning tafakkurida haqiqiy mulkdorlik tuyg'usini tarbiyalash uchun tegishli davlat jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratish.

Bunda biznes-inkubatorlar, innovatsiya markazlari, iqtisodchilar to'garaklari, tadbirkorlik markazi kabi turli usul va vositalarni samarali qo'llash.

Yoshlarning bilim va mehnatidan to'g'ri foydalanish tizimini yaratish, ularga kasb tanlashda ko'maklashish. Yoshlarning yordamga muhtoj qatlamlariga, jumladan, nogironlar va mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga alohida e'tibor qaratish.

IV. SPORT VA JISMONIY
TARBIYA SOHASIDA

1. Yoshlar o'rtasida jismoniy barkamollikni targ'ib qilish, sportning ommaviy va milliy turlari, xalq o'yinlarini rivojlantirishga ko'maklashish, turli xil musobaqa va turnirlar o'tkazish.

2. Qishloq joylarida sportni ommalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda yaqindan yordam berish.

3. O'quv muassasalari, korxonalar hamda tashkilotlar ishtirokida ommaviy sport musobaqalari, olimpiada va universiadalarda o'tkazish, taniqli sportchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish, joylarda ularning nomi bilan bog'liq sport maktablari ochish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

4. Mahallalarda, yoshlarning yashash joylarida ularni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga keng jalb etish, sport maydonchalari, mashg'ulot egalari hamda sog'lomlashtirishga xizmat qiladigan boshqa inshootlar tarmog'ini yanada kengaytirishga erishish.

(Davomi bor).

BIZNING TO'GARAK

Aziz o'quvchilar, „Yosh qalamkashlar“ to'garagimizning bu galgi mashg'ulotiga kim kelganini bilasizmi? Aytsam ishonmaysiz, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining akademigi, taniqli musavvir Ro'zi Choriyev! Mashg'ulotimizni esa taniqli jurnalist va adib Sherhali Sokin olib bordilar. Dastlab 10-15 daqiqa fursat bersangiz, yetadi degan Sherhali akening gaplari salkam ikki soatda ham tugamasa deng. Ishi borning, yuragida o'ti borning gapi ham bo'ladi-da.

To'garak a'zolarining yoshlari turlicha ekan, kichkintoylarni zeriktirib qo'ymasmikinman, deya hadiksiragan Sherhali akening yetimlikda o'tgan bolalik onlari, o'qish mashhaqqatlari, uzoq yillik ijod yo'li haqidagi hikoyalarni bolajonlar jon quloqlari bilan tinglashdi:

- Bolalarim, mabodo menikiga mehmonga borqudek bo'lsangiz, sizlarni o'tqazish uchun tuzukroq kursilarni ham yo'q, lekin, men badavlatman, deya maqtana olaman. Chunki o'n mingdan ziyod kitoblarim bor. Ularni o'qib, ijodkor sifatida shakllanganman, desam xato bo'lmaydi. Endilikda farzandlarim ham o'qib, kam bo'lishayotgani yo'q. O'g'lim 14 yoshida o'rta maktabni tamomlab, talaba bo'ldi. Qizlarim „Kelajak tongi“ eshittirishida suxandonlik qilishyapti. Jurnalist bo'lishni orzulayotgan siz - o'g'il, qizlarimga ham nasihatim shu - ko'proq kitob o'qing. Yana har kuni bittadan insho yozishni odat qilinglar. Eng muhimi - hech qachon vijdoningizga qarshi ish qilmang. Shurdagina



xalqning ko'ziga tik, dadil boqa olasiz...

Men Afg'onistonda, Sibirda, Germaniyada, Tallinda, Rigada, eh-he qanchadan-qancha mamlakatlarda bo'lganman. Qayerga bormay,

boshdan do'ppimni qo'ymayman. Bolalarim, siz ham milliyligingizni yo'qotmang, demoqchiman. Yana bir gap, sizni biz juda baxtli, toleyi kulgan insonlarmiz. Chunki jannatmakon O'zbekistonda yashaymiz. Lekin bekatlarda pista chaqib, chiptalarni har yerga tashlab, ifloslantirayotgan bolalarim, ayrim kattalarni ham ko'rsam, tutaqib ketaman. Mana shu masalalarni siz ko'tarib chiqing, -deya bolalarga yo'nalish va topshiriqlar berdilar. So'ngra Ro'zi Chori so'z oldi. Uning gapirgan gaplari, qiziqarli hikoyalari haqida to'xtaladigan bo'lsak, sahifamizda joy yetmaydi. Bu inson bilan alohida suhbat qurib, gazetamizning navbatdagi sonlarida e'lon qilishni ko'nglimizga tugib qo'ydik-da, navbatni she'rxonlikka berdik To'garak a'zolari bu gal „Chortoq haqiqati“ gazetasida qoshidagi „Bo'ston“ ijodiy uyushmasi a'zolari - namanganlik tengdoshlari ijodi bilan tanishishdi.

Feruza JALILOVA

KUZ

Ming jilvaga burkanar atrof, Qulog'ida oltin baldog'i. Xushmanzara, osmondayin sof, Qanday go'zal sunbula chog'i. Dala-qirda, bog'u rog'larda, Buloqdayin qaynaydi mehnat. Xirmonlari ko'kka bo'y cho'zgan, Paxta - faxr, g'urur hamda baxt. Meva, sharbat, rizqu ro'zlarga, To'lib-toshar to'kin dasturxon. So'ng zaminni sug'oradi qish, Yo'llariga poyonoz xazon. Naima SOLIYEVA, iqtidorli bolalar litseyining 9-„A“ sinf o'quvchisi.

IJOD UMMONINING IRMOQLARI

Qariyb chorak asrlik tarixga ega bo'lgan „Bo'ston“ sabog'idan bahra olgan insonlar orasida yetuk olimlar, shoirlar, fan nomzodlari borligi ijodiy uyushmaning samarali faoliyatidan nishona. Uning bugungi a'zolari ham ana shu ijodkorlarga munosib izdoshlar bo'lish istagi bilan izlanmoqdalar. Yosh qalamkashlar shijoatida ijod ummoniga munosib irmoqlar bo'lib qo'shilish, she'riyat bo'stoniga o'z ovozi, yangroq sozi bilan kirib borish ahdi ustuvor.

Isroil YUSUF,

„Bo'ston“ ijodiy uyushmasi rahbari, „Chortoq haqiqati“ gazetasining mas'ul kotibi.

O'ZBEKISTON

Istiqloling qutlug' bo'lsin, O'zbek elim zavqqa to'lsin, Kelajaging buyuk bo'lsin, Mustaqil yurt O'zbekiston. Keng bag'ringda o'ynab, kuylab, Baxtli bolalikdan so'ylab, Ulg'ayamiz bizlar quvnaib, Jonajon yurt O'zbekiston. Kelajaging o'g'il-qizlar, Kitobga do'st, ilm izlar, Nurli manzillarni ko'zlar, Sharqda mash'al O'zbekiston.

Muyassar

MIRZOMIDDINOVA, Chortoq tumanidagi 47-maktabning 6-„D“ sinf o'quvchisi.



Сахифамизни 273-лицей мактаб ўқувчиси Дилмурод ПУЛАТОВнинг чизган суратлари билан безатдик. Дарвоқе, унинг суратларига Рўзи Чорининг ҳам назари тушиб, дастхат ёзиб бердилар.




VATANIM

Vatanim, yolg'izim, yagonam, O'zingsan ham otam, ham onam. Qiyosing sig'maydi ta'rifga, Vatanlar ichra sen durdonam. Tarixda ne zotlar o'tmadi, Ne-nesi orzuga yetmadi, Xalqini o'ylagan mardlaring, Qanchasi armon-la ketmadi. Ne kunlar o'tsa ham boshingdan, Alplaring ketmadi qoshingdan, Baxt kulib, mustaqil bo'lding sen.

O'rgilay navqiron yoshingdan. Shukurkim, o'ziga bek elimsan, Egasan o'z shonu noningga. O'g'lingman, sen mening faxrimsan, Qalqonman shavkating, shoningga. Bahodir TO'RABOYEV, Chortoq shahridagi viloyat iqtidorli bolalar litseyining 9-sinf o'quvchisi.

ТОПИШМОҚЛАР

Пашшани хуш кўради, Ўз тўрида юради.



Емайсану тўясан, Эзуликни тўясан.

Есанг ичинг қиздиради, Кўп есанг-чи, бездиради.

(қобйил)

Зулфия ЮНУСОВА

ТЕЗ АЙТИШЛАР

Зилола заргарнинг заррин заридан завқланди.

Турғунинг товуғи тўртта тухум тугди.

Турсуной тушликка тотли таом тайёрлади.

Яшин ям-яшил яйловни янада яшнатди.

Зилола ЮНУСОВА, Зангиота туманидаги 2-мактаб ўқувчилари.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rni ishlatilmaydi... Maqsadimiz: bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR: Umida ABDUAZIMOVA TAHRIR HAY'ATI: Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV, Oynisa MUSURMONOVA, Komil YUSUPOV, Mukarrama MURODOVA, Sunnatilla QO'ZIYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 58.519 nusxada ofset usulida bosildi.

Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41. Buyurtma № Г-2692 Gazetani Muharrama PIRMATOVA sahifaladi. Navbatchi: Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137 Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34, 144-63-08